

NEMIS TILINING IZOHLI LINGVISTIK TERMINLAR LUG‘ATI TUZISH PRINSIPLARI

Yuldashova A.A

O‘zMU, Xorijiy filologiya fakulteti, Lingvistika (nemis tili)

I –kurs magistranti

Ilmiy rahbar- **Imyaminova Sh.S.**- professor

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nemis tili hamda o‘zbek tilida yaratilgan tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati va ularni tuzish tamoyillari tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** leksikografiya, terminologiya, termin, lug‘at tuzish tamoyillari, lug‘at turlari, tilshunoslik, lingvistik lug‘atlar, izohli lug‘at*

Tilshunoslik fani 1970 –yillardan boshlab tez sur‘atlarda rivojlana boshladi. Ushbu rivojlanish natijasida tilshunoslikda har xil yangidan-yangi yo‘nalish va sohalar yuzaga kela boshladi va ushbu fanni tilshunos olimlar yanada chuqurroq o‘rganib, turli xil g‘oya hamda fikrlarni oldinga surib, ularni ilmiy tadqiq qilishga kirishdilar.

Lingvistikada grammatika va semantika nazariyasi, matn lingvistikasi va nutq tahlili, sotsiolingvistika, nutq harakati nazariyasi, faoliyat va harakatga yo‘naltirilgan til nazariyasi konseptlari va kommunikativ-pragmatik til tavsifi kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Bu kabi yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi hamda ularning tadqiqi tabiiyki, fanga yangi yoki avval fanda tilga olinmagan so‘z va terminlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Tilshunoslik sohasida yangi tarmoq va terminlarning paydo bo‘lishi tilshunoslikka oid lug‘atlar yaratish ehtiyojini tug‘dirdi va buning natijasida yetuk tilshunos olimlar lug‘atlar yarata boshlashdi hamda ushbu lug‘atlar tilshunoslik sohasiga qiziquvchilar, tadqiqotchilar va olimlar uchun o‘z sohalarini yanada

chuqurroq o'rganishlari uchun juda foydali manbaga aylandi. Sohaga oid terminlarni o'z ichiga to'liq qamrab olgan terminologik, izohli terminologik lug'atlarni tuzish va ularni chop etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olimlar Ne'mat Mahkamov va Ixtiyor Ermatovlarning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobi so'zboshida bunday lug'atlar to'g'risida " ... har bir terminning o'zi atayotgan tushunchaning, narsa-hodisaning mohiyatini qay darajada to'g'ri, to'liq va aniq ifodalashini belgilash muhimdir. Bu bilan har bir terminning talabga qanchalik muayyan javob berish-javob bermasligi aniqlanadi. Lug'atlar yaratilmaguncha terminologik tizimdagi har xil salbiy hodisalar, masalan, ayni bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq terminning qo'llanishi va aksincha, bir necha (boshqa-boshqa) hodisalarni ifodalash uchun bir terminning qo'llanishi, hodisaning mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq ifodalay olmaydigan teminlarning mavjud bo'lishi kabi va boshqa salbiy hodisalar davom etaveradi", - degan fikrlar keltirib o'tilgan.

Tilshunoslikda lug'at yozish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi soha bu leksikografiyadir. Leksikografiyada lug'atlar turlarga ajratiladi va bu leksikografiyaning obyektini hisoblanadi. Lug'atlar tilshunoslik va sohaga oid lug'atlarga ajratiladi va ushbu maqolada tilshunoslikka oid lug'atlar ko'rib chiqiladi hamda nemis va o'zbek tilida tilshunoslik sohasiga oid bir nechta lug'atlar tahlil qilinadi.

Lingvistik lug'atlar bir, ikki yoki ko'p tilli bo'lishi mumkin.¹

Kromann ikki tilli lug'atlarning xususiyatlariga ko'proq ahamiyat qaratadi. U o'zaro tarjima lug'atlar, (faol) ikki tilli lug'atlarni va tarjima lug'atlar, nofaol ikki tilli lug'atlardan farqlaydi.

Bir tilli lug'atlarni sinflarga ajratish uchun quyidagi har xil mezonlarga murojaat qilinadi.

- Diaxron va sinxron jihati; hozirgi davr yoki o'tmishga aloqadorligi;
- Adabiy yoki hududiy qamrovi va

¹ Thea Schippan . Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. S.56

- Umumiy yoki guruh lugʻatiga koʻra turlarga ajratish mumkin.

Lugʻatlar tuzilishiga koʻra:

- Soʻz oʻzagi va soʻz yasashini oʻz ichiga olgan alifbo tartibidagi lugʻatlar;
- Paradigmatik aloqalar boʻyicha tuzilgan lugʻatlar va
- Alifbo hamda onomasiologik aloqalarni birlashtirgan lugʻatlarga ajratiladi.

Henne¹ lugʻatlarni alifbo,(semasiologik), tushunchali (onomasiologik),(sintagmatik),ortografiya va tovush kabi sintagmatik va subaspektga yoʻnaltirilgan turlarga ajratadi. Farqlovchi tasniflash belgilari sifatida u yana sinxron, diaxron,tarixiy(etimologik), zamonga xos,maʼlum til guruhlarga oid,sohaviy yoki maxsus tilga xos boʻlgan, matnni kodlash , alohida shaxs bilan bogliq,soʻzlashuv tili bilan bogʻliq,tezlikka yoʻnaltirilgan kabi turlarga ham ajratadi.

Nemis tilshunos olimlari Konrad Rudining “Lexikon sprachwissenschaftlicher Termini”(1985) hamda Teodor Levandovskiyning “Linguistisches Wörterbuch”(1973) nomli nemis tilida yaratilgan tilshunoslikka doir izohli terminlar lugʻatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin va ularni qisqacha tahlil qilamiz.

T.Levandovskiyning “ Linguistisches Wörterbuch” izohli lugʻati 1973-yilda yaratilgan boʻlib, u lingvistikaga oid 1000 dan ortiq muhim terminlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu terminlar tor yoki tizimli nazariy maʼnoda emas, balki boshqa ilm vakillari bilan hamkorlikda kengroq ilmiy mulohaza qilingan holda izohlangan hamda 3 ta banddan iborat.

Bundan tashqari ushbu lugʻatga sotsiolingvistika, psixolingvistika,matn lingvistikasi va pragmalingvistika bilan bir qatorda anʼanaviy tilshunoslik va tarixiy grammatikaga oid muhim tushuncha va terminlar ham kiritilgan.

²Thea Schippan . Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. S. 57

Konrad Rudining 1985-yilda yaratilgan “ Lexikon der sprachwissenschaftlicher Termini“ lugʻati ham nemis tilidagi tilshunoslik terminlari izohli lugʻatlari orasida katta ahamiyatga ega boʻlgan asar hisoblanadi. Bu lugʻatning yaratilishiga avval

ta'kidlab o'tilganidek XX asrning oxirlariga kelib lingvistikaning ko'plab sohalarda rivojlana boshlashi ham sabab bo'lgan va bunga ehtiyoj ham sezilgan.

Konrad Rudining ushbu lug'atida bu rivojlanish hisobga olingan va avvalambor ilmiy tadqiqotga qiziquvchi foydalanuvchilarga tilshunoslikka oid terminlar ma'nosini yetkazib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. U "Kleines Wörterbuch wissenschaftlicher Termini" lug'ati asosida yaratilgan. U o'z ichiga tilshunoslikning an'anaviy fan sohalari bo'lgan strukturalizm va umumiy grammatikaning klassik davri bilan birga so'nggi 10-15 yillikda tilshunoslik tadqiqoti markazida turgan fan sohalariga oid terminlarni ham qamrab olgan. Izohli lug'at tarkibi maktab grammatikasi va tarixiy-qiyosiy tilshunoslikdan o'sha davr tilshunosligining yangi yo'nalishlariga oid 3000 dan ortiq kalit so'zlardan iborat. Ushbu lingvistikaga oid izohli terminlar lug'atini tahlil qiladigan bo'lsak, unga lug'atda quyidagicha ta'riflar berilgan:¹

1. Lug'at tilshunoslikka oid ensiklopedik ma'lumotnoma emas; u o'z ichiga faqat lingvistikada qo'llaniladigan terminlarni qamrab oladi. "Til va tafakkur", "Til o'qitish metodlari", "Tilshunoslik tarixi" va boshqa muammoli maqolalar bunga kiritilmagan, chunki bu terminlar matematika, matematik logika, to'plamlar nazariyasi, kibernetika va boshqa fan tarmoqlariga kiradi va ular tilshunoslikda o'ziga xos ma'noda qo'llanilmaydi. Zamonaviy tilshunoslikda uchraydigan algoritim, informatsiya, Kalkül (hisoblash) va b.fanlarga tegishli tushunchalar haqidagi ma'lumotlarni boshqa shunga mos asarlardan qidirish kerak. Adabiyotga oid terminlar ham bu lug'atda uchramaydi, she'riyat va stilistikaga oid ba'zi tilshunoslik va adabiyoshunoslik fanlari oralig'ida uchraydigan muhim terminlarga bundan mustasno.

¹ Konrad Rudi. Lexikon der Sprachwissenschaft. 1985. Vorwort.

2. Barcha kalit so'zlar alifbo tartibida tuzilgan. Tag ma'noli so'zlar (kalit so'zning izohida to'q rang bilan ajratilgan so'zlar) alifbo tartibida emas, balki soha nuqtayi nazaridan berilgan.

3. Sifat va otdan iborat soʻzlar ot bilan birga berilgan. Masalan, “logische Form”

funktionale Linguistik”, “grammatischer Wechsel” – “Form, logische“, „Linguistik, funktionale“, „Wechsel, grammatischer“.

- Koʻproq atamali sifatlar qaysi atama bilan kelishi “ ↑ “ bilan berilgan.

binär: zweigliederig, aus zwei Teilen bestehend ↑ Konstituente, Opposition.

- Hammaga maʼlum boʻlmagan terminlar qavs ichida koʻrsatma bilan berilgan.

Langue (de Saussure). . . .(= von de Saussure eingeführter Terminus)

- Bitta soʻzda koʻproq atama boʻlsa qavs ichida beriladi.

- Soʻzlarning katta qismi bir-biri bilan havolalar orqali bogʻlangan va ↑ strelka bevosita atamaga mos taʼrifni topish uchun keltiriladi. Steigerung ↑ Komparation.

Unter qoʻshimchasi bilan kelgan ↑ kalit soʻzda yana tag maʼno borligini ifodalaydi:

Wortakzent ↑ unter Akzent.

Lingvistik lugʻatda kalit soʻzlar soʻz oʻzagiga koʻra tartiblangan, masalan Sem, Semantem, Semantik, Semantik, allgemeine, Semantik, generative va boshqalar.

Oʻzbek tilshunosligida sohaga oid eng muhim tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati akademik A.Hojievning 1985-yilda chop etilgan “Lingvistik terminlarning izohli lugʻati“ sanaladi. Ushbu lugʻat hozirgi kungacha muhim manba sifatida foydalanib kelinmoqda. Oʻttiz yildan ortiq vaqtdan buyon bu izohli lugʻat oliy taʼlim, oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi hamda umumtaʼlim maktablari oʻqituvchi-talabalari tomonidan foydalanib kelinmoqda.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan lugʻat qayta ishlanib nashr etildi.(A.Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti,2002).

Lugʻat tilshunoslikka oid barcha terminlarni oʻzida mujassamlashtirmagan. Lugʻatga eng koʻp qoʻllanadigan terminlar kiritilgan. Bunda avvalo, maktab, oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlari uchun nashr etilgan darslik va turli tildagi qoʻllanmalarda ishlatilgan terminlar qamrab olingan. Shuningdek, oliy oʻquv yurtlarida

tilshunoslikning barcha sohalari bo'yicha o'qiladigan kurslarda, tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda tez-tez uchrb turadigan terminlar ham lug'atga kiritilgan. Lug'at so'zligini belgilashda, ya'ni u yoki bu termini lug'atga kiritish kiritmaslikda uning o'zbek tiliga oid adabiyotlarda, tilshunoslik kurslari bo'yicha o'qish-o'qitish ishlari jarayonida qo'llanish-qo'llanmasligiga, qo'llanish darajasiga e'tibor berilgan. Aniqroq qilib aytganda, o'zbek tilida bor, shu tilga xos hodisalarni va barcha tillar uchun umumiy hodisalarni ifodalovchi terminlar lug'atga kiritilmagan. Masalan, o'zbek tiliga xos bo'lmagan hodisalarni bildiruvchi ablaut, artikl, aorist kabi terminlar lug'atga kiritilmagan. Lug'at o'z ichiga 1700 ga yaqin terminlarni qamrab olgan. Terminlar lug'atda alifbo tartibida berilgan.

Lug'at maqolasi. Har bir lug'at maqolasi bosh so'z sifatida lingvistik termini keltirish bilan boshlanadi, masalan,

LEKSIKOGRAFIYA (yun.lexikos-lug'at; grapho-yozaman).

Lug'at maqolasining tarkibiy qismlaridan biri terming beriladigan izohdir. Har bir termin ma'lum lingvistik tushunchani bildiradi, ma'lum bir ma'noga (ayrimlari birdan ortiq ma'noga) ega. Lug'at ma'qolasida terminning ana shu ma'nosi, ko'p ma'noli bo'lsa, barcha ma'nolari izohlanadi. Lug'at maqolasidagi tarkibiy qismlardan yana biri terminga berilgan izohni tasdiqlovchi misollardir. Lekin izohni isbotlovchi misol barcha lug'at maqolalarida bo'lavermaydi, balki ma'lum terminlar uchun tuziladigan lug'at maqolalarigina misol talab etadi. Mas., lingvistika, umumiy tilshunoslik terminlarining izohi hech qanday misol talab etmaydi. Jo'nalish kelishigi, ergash gap terminlarining izohidan so'ng esa tasdiqlovchi misol berilishi shart.

Quyida ushbu lug'atdan bir nechta misollar keltiriladi.

TERMINOLOGIYA (termin+logos – so'z, ta'limot). 1. Biror ilm, kasb va b.sohaga oid terminlar majmui. Mas., Grammatik terminologiya, san'at terminologiyasi va boshqalar.

2. Tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi bo'limi.

TERMINOLOGIK LUG'AT. Ma'lum bir sohaga oid so'z-terminlarni qayd etuvchi lug'at. (Mas., H.Yu. Bekmuhammedovning 1978-yilda nashr etilgan "Tarix

terminlari lug‘ati”). Bundan tashqari N.Mahkamov va I.Ermatovlar tomonidan yaratilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” ham mavjud bo‘lib, u 2013-yilda nashr qilingan va lotin alifbosiga asoslangan holda tuzilgan.

Ushbu “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”ni oldingi izohli lug‘atlardan farqi, birinchidan, umumta’lim maktablari, akademik lisey hamda kasb-hunar kollejarining o‘quvchilari uchun yaratilganligi bo‘lsa, ikkinchidan, izohlar umumta’lim maktablari, akademik lisey hamda kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan ona tili darsliklari asosida berilganligidadir.

Izohli lug‘atga XX asr boshlarida ilk yaratilgan ona tili darsliklarida qo‘llanilgan terminlardan hozirgi kunda amalda bo‘lgan ona tili darsliklarigacha bo‘lgan davrdagi qo‘llanilgan va qo‘llanilayotgan asosiy terminlar kiritilgan. Lingvistik terminlarga izoh berishda e’tibor, asosan, hozirgi kunda amalda bo‘lgan ona tili darsliklaridagi terminlarga qaratilgan va ularga izoh berilgan. Chunki barcha ona tili darsliklaridagi terminlar qo‘llanish doirasining ko‘lami va davriyligidan qat’iy nazar, shubhasiz, keying davr lingvistik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti uchun o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. (Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati, Toshkent-2013) Ushbu lug‘at lingvistik terminlarining izohli lug‘atiga 1500 ga yaqin terminlar qamrab olingan va izoh berilgan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan nemis va o‘zbek tillarida yaratilgan tilshunoslikka oid izohli terminlar lug‘atlari bilan tanishish jarayonida leksikografiya, lug‘at turlari, tilshunoslikka oid lug‘atlar va ularning tuzilishi, lug‘at tuzish tamoyillari haqida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tildi. Ishning keyingi qismlarida nemischa-o‘zbekcha tilshunoslikka oid terminlar lug‘ati tuzish tamoyillari, nemis tilida lingvistik terminlar lug‘ati tuzishning tarixiy taraqqiyoti va ushbu lug‘atlarning semantik-struktur tuzilishi tahlil qilinadi.

Nemischa-o‘zbekcha sohaga oid lug‘atlar yaratishga nafaqat bugungi kunda, balki doimiy ravishda ehtiyoj bo‘lganligi hamda ko‘plab turdagi lug‘atlar mavjud

emasligi sababli, biz ham oldimizga tilshunoslikka doir lug‘at yaratishni maqsad qilib qo‘ydik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. A. Hojiev. 1985
2. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. N.Mahkamov, I.Ermatov. 2013
3. Deutsche Lexikologie. A. Iskos, A.Lenkova.
4. Lexikologie der deuschen Gegenwarssprache. Thea Schippan.1992.
5. Lexikon der sprachwissenschaftlicher Termini. Konrad Rudi.1985
6. Linguistisches Wörterbuch. Theodor Levandovskiy. 1975.